

Environmental and Social Impact Assessment

PUBLIC

Project Number: 58290-001
Draft
August 2024

Uzbekistan: Samarkand 1 Solar PV and BESS Project

Appendixes – Part 14

Prepared by ACWA Power for the Asian Development Bank (ADB).

This environmental and social impact assessment report is a document of the borrower. The views expressed herein do not necessarily represent those of ADB's Board of Directors, Management, or staff, and may be preliminary in nature. Your attention is directed to the [“terms of use”](#) section of ADB's website.

In preparing any country program or strategy, financing any project, or by making any designation of or reference to a particular territory or geographic area in this document, ADB does not intend to make any judgments as to the legal or other status of any territory or area.

APPENDIX E – CONSULTATIONS WITH AUTHORITIES

№ JEC-OUT-23-538 от 20.09.2023

Тема: Касательно инвентаризации кустарников и деревьев
на территории аккумуляторной системы хранения энергии
«Каракуль» Проекта «Sazagan Solar 2»

Министру экологии,
охраны окружающей среды,
и изменения климата
Республики Узбекистан
А.А. Абдухакимову

Бухарскому областному управлению
Министерства экологии,
охраны окружающей среды,
и изменения климата РУз

Уважаемый Азиз Абдукахарович!

В соответствии с указом Президента Республики Узбекистан № ПП-208 от 04.07.2023 г. «О мерах по реализации инвестиционного проекта «Строительство солнечной фотоэлектрической станции мощностью 500 МВт, системы накопления электрической энергии мощностью 334 МВт и подстанции, способствующей обеспечению ее функционирования, в Нурабадском районе Самаркандской области — Sazagan Solar 2» (далее – Проект), между Правительством Республики Узбекистан в лице Министерства инвестиций, промышленности и торговли, компанией «ACWA Power Company» (далее – Инвестор) и компанией «ACWA Power Sazagan Solar 2» (далее – Проектная компания) 19 апреля 2023 года подписано инвестиционное соглашение.

В рамках данного инвестиционного соглашения, Проектная компания осуществляет деятельность по проектированию, финансированию, строительству и эксплуатации аккумуляторной системы хранения энергии «Каракуль» мощностью 334 МВт, а также подземного кабеля на напряжение 220 кВ, соединяющего аккумуляторную систему хранения энергии к существующей подстанции «Каракуль» 500/220 кВ в Каракульском районе Бухарской области. Ожидаемая дата начала строительных работ — 4й квартал 2023 года, ввод объекта в эксплуатацию планируется на 4й квартал 2025 года.

Международный консультант по экологическим и социальным вопросам компании «ACWA Power Company» - компания «5 Capitals» поручила компании «Juru Energy» провести оценку воздействия Проекта на окружающую среду и социальную сферу в соответствии с национальными и международными требованиями.

Принимая во внимание Указ Президента Республики Узбекистан №УП-46 от 30.12.2021 г. «О мерах по ускорению работ по озеленению и дальнейшей эффективной организации охраны деревьев в Республике», мы просим Вас предоставить перечень декоративных деревьев в пределах зоны действия Проекта, с указанием их типа и количества, на основании посещения проектной территории Вашим заинтересованным должностным лицом вместе с представителем компании «Juru Energy».

Мы надеемся, что это поможет определить соответствующие меры, которые потребуются (если таковые будут), такие как повторная посадка (пересадка), если это возможно, для выявленных деревьев, которые будут затронуты в связи с развитием Проекта в Каракульском районе Бухарской области.

К данному письму прилагается ситуационный план аккумуляторной системы хранения энергии «Каракуль» мощностью 334 МВт и подземного кабеля на напряжение 220 кВ.

Большое спасибо за Вашу помощь, и мы с нетерпением ждем Вашего ответа.

С уважением,



Директор

Ж. Исмаилов

Исполнитель:
Ирода Маликова
Моб.: +998770675550
Тел.: +99871 202 04 40
i.malikova@juruenergy.com
info@juru.org

**Juru**

Ситуационный план расположения аккумуляторной станции в Бухарской области



Координаты площадки
1- 39.512858° 63.871984°
2- 39.516344° 63.866787°
3- 39.520307° 63.871509°
4- 39.518451° 63.874236°
5- 39.515608° 63.875180°

Углы поворота
1- 39.518922° 63.869890°
2- 39.519480° 63.869148°
3- 39.523803° 63.871028°
4- 39.526355° 63.867569°

Руководитель предприятия _____

Масштаб 1 : 15000

Государственный инспектор _____

Подписи подтверждаю _____

Рис. 1



ООО «Juru Energy Consulting»
100077, г.Ташкент, М.Улугбекский район,
улица Чуст, дом 10А.
ИНН 303454532, МФО 00401
Банк: “АТ Aloqabank Atlas KHKM”
P/c: 20208000400502375001

JEC-OUT-23-538
20.09.2023

RE: Tree inventory on BESS Karakul site of the Sazagan Solar 2 Project

**To the Ministry of Ecology, Environmental Protection
and Climate Change of the Republic of Uzbekistan**

In accordance with Presidential Decree No. PD-208 dated 04.07.2023 "Construction of solar photoelectric power plant with capacity of 550 MW and power storage system, with capacity of 334 MW and a substation serving to ensure its operation in the Nurabad district of Samarkand region (Sazagan Solar 2)", on April 19, 2023, the Ministry of Investments, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan signed investment agreements with “ACWA Power Company” (Project company) about implementation of the Project.

In the framework of the investment agreement, ACWA Power is developing Sazagan Solar 2 Project in Samarkand and Bukhara regions, within the scope of which ACWA Power will construct a battery energy storage system with a capacity of 334 MW (hereinafter – “BESS”) and a 220 kV underground cable with a length of 1,000 meters which will connect BESS facility with the existing 500/220 kV Karakul substation in Karakul district of Bukhara region.

In advance of construction, ACWA Power has assigned 5 Capitals to the completion of Environmental and Social Impact Assessment (ESIA) studies for the development of the solar power project, in line with national requirements and international performance standards prescribed by the project lenders. To this end, 5 Capitals has engaged Juru in supporting the Project’s national and international ESIA studies.

In accordance with Presidential Decree No. UP-46 dated 30.12.2021 “On measures to accelerate landscaping work and further effective organization of tree protection in the Republic,” we kindly ask you to provide a list of ornamental trees within the Project area, indicating their type and quantity, based on a joint site visit with representatives from the Ministry and representatives from Juru Energy.

We hope that this will help determine the appropriate measures that will be required (if any), such as replanting, if possible, for identified trees that will be affected by the development of the Project in the Karakul district of Bukhara region.

Attached to this letter is a situation plan of 334 MW Karakul BESS and a 220 kV underground cable.

Your support is much appreciated, and we look forward to your feedback.

Yours Sincerely,

Director

Jushkinbek Ismailov

Annex 1

Situation plan of 334 MW Karakul BESS and a 220 kV underground cable





Рис. 1



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI
BUXORO VILOYATI MADANIY MEROS BOSHQARMASI
AGENCY OF CULTURAL HERITAGE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
DEPARTMENT OF CULTURAL HERITAGE OF BUKHARA REGION

200121, O'zbekiston, Buxoro viloyati, Buxoro shahar, H.Ibodov ko'chasi, 7-uy
Tel: (0365) 224-24-60, Tel/fax. (0365) 224-14-62, e-mail: buxoro_inspeksiya@umail.uz

2023-yil 10 - avgust

03-14/1074 -sonli

“Juru Energy Consulting”
MChJ direktori J.Ismoilovga

“Juru Energy Consulting” MChJning 2023-yil 25-iyuldagi JEC-OUT-23-317-sonli xati va ilovada taqdim etilgan joylashuv Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi mutaxassislaridan tomonidan o'rganib chiqildi.

Ilovada taqdim joylashuv Qorako'l tumani Xo'jalar MFY hududida joylashgan bo'lib, joylashuv hududi va uning 500 m radius ta'sir doirasida moddiy madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olinmagan.

Shu bilan birga, hudud arxeologik jihatdan o'rganilmaganligini inobatga olib, arxeologik qidiruv va kuzatuv ishlarini olib borish maqsadga muvofiq ekanligini ma'lum qilamiz.

Boshqarma boshlig'i

Sh.Sharofiddinov

№ JEC-OUT-23-317 25.07.2023

Xat mavzusi: Loyiha hududida madaniy meros ob'ektlarining yo'qligi yoki mavjudligi va Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot so'rash

Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.07.2023 yildagi PQ-207-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 1)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, hamda 04.07.2023 yildagi PQ-208-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 2)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlariga muvofiq, 2023-yilning 19-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "ACWA Power Company" kompaniyasi (Loyihalar investori) hamda "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" (Loyiha kompaniyalari) o'rtasida investitsiya bitimlari imzolandi.

Mazkur investitsiya bitimlari doirasida, Samarqand va Buxoro viloyatlarida "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" Loyihalarini ishlab chiqmoqda, bu Loyihalar doirasida ACWA Power Buxoro viloyati Qorako'l tumanida 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini qurishni amalga oshirmoqda ("Qorako'l" energiya saqlash tizimini tavsifa etilgan joylashuvi uchun 1-ilovaga qarang).

Ushbu xat bilan shuni ma'lum qilamizki, "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" tashkilotlarining xalqaro maslahatchisi "5 Capitals" tashkiloti loyihalarning xorijiy investorlar va davlat tomonidan talab qilinuvchi ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholashni amalga oshirishni "Juru Energy" tashkiloti zimmasiga topshirdi. Ekologik va ijtimoiy baholash doirasida "Juru Energy" loyihalar hududiga tegishli ekologik va ijtimoiy izlanishlar, ma'lumotlarni to'plash hamda tegishli tashkilotlar va mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar olib bormoqda.

Xususan, Juru Energy Sizdan Loyiha maydonidagi va undan 500 m radiusda joylashgan Loyiha ta'siri ostida bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari va Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot olishda amaliy yordam berishingizni so'raydi:

- 1.Loyiha hududida yoki uning 500 m radius ta'sir doirasida biron-bir moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari mavjudmi?
- 2.Agar mavjud bo'lsa, moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari (nomi, joylashuvi, ahamiyati va h.k.) haqida ma'lumot taqdim etishingizni so'raymiz.
- 3.Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan Loyiha ob'ekti va uning ob'ektlarida biron bir tadqiqot o'tkazildimi?
- 4.Loyiha hududida va uning ob'ektlarida Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan qurilish oldidan o'rganishlar talab qilinadimi?
- 5.Iltimos, Loyiha bo'yicha har qanday qo'shimcha izohlar taqdim eting.

Yordamingiz uchun minnatdormiz va javobingizni kutib qolamiz.


Hurmat bilan,

Direktor

Jushkinbek Ismailov



Ma'lumot uchun:
Dinara Rustami
d.rustami@juru.org
Mob.: +99897 888 60 11
Tel.: +99871 202 04 40
info@juru.org



The tower of the
 Sheikh Sa'ud Mosque
 in Riyadh, Saudi Arabia.
 Tel. +966 11 241 1111

urul

000 Star Energy Consulting
 Bank: AT Andover, MA 01461
 Tel: 978 686 7300

№ JEC-OUT-23-317 25.07.2023

Xat mavzusi: Loyiha hududida madaniy meros ob'ektlarining yo'qligi yoki mavjudligi va Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot so'rash

Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.07.2023 yildagi PQ-207-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 1)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, hamda 04.07.2023 yildagi PQ-208-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 2)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlariga muvofiq, 2023-yilning 19-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "ACWA Power Company" kompaniyasi (Loyihalar investori) hamda "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" (Loyiha kompaniyalari) o'rtasida investitsiya bitimlari imzolandi.

Mazkur investitsiya bitimlari doirasida, Samarqand va Buxoro viloyatlarida "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" Loyihalarini ishlab chiqmoqda, bu Loyihalar doirasida ACWA Power Buxoro viloyati Qorako'l tumanida 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini qurishni amalga oshirmoqda ("Qorako'l" energiya saqlash tizimini tavsiya etilgan joylashuvi uchun 1-ilovaga qarang).

Ushbu xat bilan shuni ma'lum qilamizki, "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" tashkilotlarining xalqaro maslahatchisi "5 Capitals" tashkiloti loyihalarning xorijiy investorlar va davlat tomonidan talab qilinuvchi ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholashni amalga oshirishni "Juru Energy" tashkiloti zimmasiga topshirdi. Ekologik va ijtimoiy baholash doirasida "Juru Energy" loyihalar hududiga tegishli ekologik va ijtimoiy izlanishlar, ma'lumotlarni to'plash hamda tegishli tashkilotlar va mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar olib bormoqda.

Xususan, Juru Energy Sizdan Loyiha maydonidagi va undan 500 m radiusda joylashgan Loyiha ta'siri ostida bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari va Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot olishda amaliy yordam berishingizni so'raydi:

- 1.Loyiha hududida yoki uning 500 m radius ta'sir doirasida biron-bir moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari mavjudmi?
- 2.Agar mavjud bo'lsa, moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari (nomi, joylashuvi, ahamiyati va h.k.) haqida ma'lumot taqdim etishingizni so'raymiz.
- 3.Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan Loyiha ob'ekti va uning ob'ektlarida biron bir tadqiqot o'tkazildimi?
- 4.Loyiha hududida va uning ob'ektlarida Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan qurilish oldidan o'rganishlar talab qilinadimi?
- 5.Iltimos, Loyiha bo'yicha har qanday qo'shimcha izohlar taqdim eting.

Yordamingiz uchun minnatdormiz va javobingizni kutib qolamiz.

Hurmat bilan,

Direktor

Jushkinbek Ismailov



Ma'lumot uchun:

Dinara Rustami

d.rustami@juru.org

Mob.: +99897 888 60 11

Tel.: +99871 202 04 40

info@juru.org

1-ilova

**Sazagan Solar 2 loyihasi doirasidagi Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 334 MVt quvvatga ega
"Qorako'l" energiya saqlash tizimining joylashuvi**

Tavsif:

Qizil poligon – 334 MVt quvvatga ega "Qorako'l" energiya saqlash tizimi

Qizil liniya – "Qorako'l" energiya saqlash tizimini mavjud "Qorako'l" podstansiyasiga ulovchi 220 kV kuchlanishli yer osti tarmog'i (Buxoro viloyati Qorako'l tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
334 MVt quvvatga ega "Qorako'l" energiya saqlash tizimining koordinatalari	
39.516360°	63.866829°
39.520293°	63.871525°
39.518461°	63.874283°
39.515674°	63.875206°
39.512965°	63.871978°

№ JEC-OUT-23-299 21.07.2023

«Hududgazta'minot» AJ ga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.07.2023 yildagi PQ-207-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 1)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, hamda 04.07.2023 yildagi PQ-208-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 2)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlariga muvofiq, 2023-yilning 19-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "ACWA Power Company" kompaniyasi (Loyihalar investori) hamda "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" (Loyiha kompaniyalari) o'rtasida investitsiya bitimlari imzolandi.

Mazkur investitsiya bitimlari doirasida "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" kompaniyalari Samarqand viloyati Nurobod tumanida umumiy quvvati 1000 MVt bo'lgan uchta quyosh fotoelektr stansiyalarini hamda ularning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan elektr uzatish tarmoqlarini; Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida 500/220 kV sig'imga ega podstansiyasini va 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini; shuningdek, Buxoro viloyati Qorako'l tumanida 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini qurishni amalga oshirmoqda (loyihalar obyektlarining joylashuvi 1-ilova, 2-ilova, 3-ilova va 4-ilovalarda keltirilgan).

Ushbu xat bilan shuni ma'lum qilamizki, "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" tashkilotlarining xalqaro maslahatchisi "5 Capitals" tashkiloti loyihalarning xorijiy investorlar va davlat tomonidan talab qilinuvchi ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholashni amalga oshirishni "Juru Energy" tashkiloti zimmasiga topshirdi. Ekologik va ijtimoiy baholash doirasida "Juru Energy" loyihalar hududiga tegishli ekologik va ijtimoiy izlanishlar, ma'lumotlarni to'plash hamda tegishli tashkilotlar va mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar olib bormoqda.

Xususan, Juru Energy Sizdan quyidagi savollarga muvofiq Loyiha maydoni hududida mavjud gaz quvurlari va xavfsizlik bufer zonasi haqida ma'lumot olishda amaliy yordam berishingizni so'raydi:

- 1.Loyiha maydonini kesib o'tuvchi gaz quvurlari mavjudmi (jumladan magistral yoki mahalliy)?
- 2.Agar mavjud bo'lsa, ularning joylashuvi va tavsifi (xususiyatlari, jumladan gazning bosimi va boshqa texnik parametrlari) va tegishli sanitariya himoya zonasi haqida ma'lumot bersangiz.
- 3.Qurilish va foydalanish bosqichlarida xavfsizlik bufer zonasining o'lchami qanday bo'lishi kerak?
- 4.Iltimos, xavfsizlik buferlaridagi maxsus cheklovlar haqida ma'lumot bering.
- 5.Iltimos, loyihalar bo'yicha har qanday qo'shimcha izohlar bering.

Yordamingiz uchun minnatdormiz va javobingizni kutib qolamiz.

Hurmat bilan,

Direktor

Jushkinbek Ismailov




1-ilova
Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining joylashuvi

Tavsifi:

Qizil poligon - 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Sariq poligon – 334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi (Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani)

Yashil poligon – 500/220 kV sig‘imga ega podstansiya (Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.542520°	66.670865°
39.547864°	66.671012°
39.551819°	66.703100°
39.542066°	66.702663°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi koordinatalari	
39.575981°	66.735827°
39.577183°	66.739937°
39.572949°	66.741087°
39.571916°	66.737505°


SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
500/220 kV sig‘imga ega podstansiya koordinatalari	
39.573171°	66.741593°
39.577404°	66.740478°
39.579869°	66.753116°
39.575549°	66.754244°

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining joylashuvi

Tavsif:

Qizil poligon - 400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Ko'k poligon - 500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.440808°	65.964342°
39.461096°	65.963115°
39.463319°	65.986337°
39.430096°	65.993754°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.429051°	65.922674°
39.442097°	65.970488°
39.424449°	65.971549°
39.418855°	65.952850°
39.409588°	65.958201°
39.400537°	65.942792°

Sazagan Solar 2 loyihasi doirasidagi Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 334 MVt quvvatga ega
“Qorako'l” energiya saqlash tizimining joylashuvi

Tavsif:

Qizil poligon – 334 MVt quvvatga ega “Qorako'l” energiya saqlash tizimi

Qizil liniya – “Qorako'l” energiya saqlash tizimini mavjud “Qorako'l” podstansiyasiga ulovchi 220 kV kuchlanishli yer osti tarmog'i (Buxoro viloyati Qorako'l tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
334 MVt quvvatga ega “Qorako'l” energiya saqlash tizimining koordinatalari	
39.516360°	63.866829°
39.520293°	63.871525°
39.518461°	63.874283°
39.515674°	63.875206°
39.512965°	63.871978°

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlarining joylashuvi

Tavsif:

Qizg'ish liniya - 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlari (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Qizil poligon - 400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Ko'k poligon - 500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Sariq poligon – 334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi (Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani)

Yashil poligon – 500/220 kV sig'imga ega podstansiya (Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani)



NORTHING	EASTING
220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlarining koordinatalari	
39.427089°	65.974595°
65.974595°	39.426936°
39.426936°	65.974561°
65.974561°	

2024 yil 17 iyul

№ APSS1-025

Kinga: Samarqand viloyati hokimligi, 140157, Samarqand shahri, Ko'ksaroy ko'chasi, 1

Mavzu: Shoshilinch texnik tadqiqotlar uchun ma'lumot va ruxsat olishda yordam haqida

Prezidentning 2023-yil 4 - iyuldagi PD-207-sonli "Samarqand viloyati Nurobod tumanida ikkita quyosh elektr stansiyasi (500 MVt) va akkumulyator energiyasini saqlash tizimini (334 MVt) rivojlantirishni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida, 2023-yil 19-aprelda "ACWA Power" kompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Energetika vazirligi bilan investitsiya va elektr energiyasini sotib olish bo'yicha shartnomalarni imzoladi. Prezident qarorining nusxasi mazkur xatning 1-ilovasida keltirilgan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun "ACWA Power" boshqa xalqaro moliya institutlari qatori "Osiyo Taraqqiyot Banki" (ADB) va "Xalqaro Moliya Korporatsiyasi" (IFC) kabi Loyihani kreditorlar tomonidan moliyalashtirishni kutilmoqda. Shunga ko'ra, "ACWA Power", "5 Capitals", "Juru" va "Index Consulting" kompaniyalariga Loyiha kreditorlarining ekologik va ijtimoiy samaradorligi standartlariga muvofiq Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash va Yer olish va yashash tarzini tiklash rejasi tadqiqotlarini o'tkazish uchun tayinladi.

Kreditorlarning talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi va "Milliy elektr tarmoqlari" Aksiyadorlik Jamiyati (AJ) tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqiladigan Loyiha bilan bog'liq ob'ektlarni qamrab olish uchun Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash va Yer olish va yashash tarzini tiklash rejasi tadqiqotlari kengaytiriladi. Qoshimcha/yordamchi ob'yektlar qatoriga Samarqand viloyatidagi ikkita parallel 13 km va ikkita parallel 11 km uzunlikda bo'lgan Havo Elektr Uzatish Liniyalari (HEUL) kiradi, ularning har ikkalasi ham 220 kV kuchlanishli. HEULLar Loyiha bilan bog'liq holda rejalashtirilgan yangi kichik stansiyaning mavjud tarmoqqa ulaydi. Ushbu ob'ektlarning umumiy xaritasi va tegishli GPS koordinatalari ushbu xatning 2-ilovasida keltirilgan.

Nurobod va Pasdarg'om tumanlari hokimlarining texnik bo'limlaridan turli muhim ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy mavzular bo'yicha tegishli ma'lumotlarni olishda yordam berishingizni so'raymiz. Zarur bo'lgan ma'lumotlar (so'rovnomalar) ro'yxati ushbu xatning 3-ilovasida ko'rsatilgan.

Loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyalashtirish muddatlariga yaqinlashayotganligi sababli, loyiha kreditorlari tomonidan ko'rib chiqish uchun Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash va Yer olish va yashash tarzini tiklash rejasi tadqiqotlarini yakunlash juda dolzarb bosqichdir.

E'tiboringiz uchun minnatdorchilik bildiramiz va ushbu milliy ahamiyatga ega bo'lgan strategik loyiha bo'yicha juda zarur tadqiqotlarni yakunlash uchun Sizdan amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Hurmat bilan,

Soumendra Rout

Bosh Direktor



1-ilova: Loyihani amalga oshirish to'g'risidagi Prezident qarori

ОММВ: 07/23/207/0445-son
05.07.2023-й.



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2023 yil « 4 » ИЮЛЬ

№ПК--207

“Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда унинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанцияни қуриш (Sazagan Solar 1)” инвестиция лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида

Аҳолини ва иқтисодиёт тармоқларини энергия ресурслари билан барқарор таъминлаш, электр энергияси ишлаб чиқаришда табиий газдан фойдаланишни камайтириш ҳамда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш кўламини кенгайтиришга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш мақсадида:

1. Қуйидагилар:

а) “ACWA Power Company (Saudi Listed Joint Stock Company)” (Саудия Арабистони) компанияси томонидан (кейинги ўринларда — Инвестор) “Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда унинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанцияни қуриш (Sazagan Solar 1)” инвестиция лойиҳаси (кейинги ўринларда — Инвестиция лойиҳаси) доирасида Ўзбекистон Республикасида масъулияти чекланган жамият шаклидаги “ACWA Power Sazagan Solar 1” хорижий корхонаси (кейинги ўринларда — Лойиҳа компанияси) таъсис этилганлиги;

б) Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати номидан Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Инвестор ва Лойиҳа компанияси ўртасида **2023 йил 19 апрелда инвестиция битими** (кейинги ўринларда — Инвестиция битими) имзоланганлиги ҳамда унга мувофиқ Инвестор ва Лойиҳа компанияси:

Инвестиция лойиҳасини амалга оширишнинг бутун даври мобайнида Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини лойиҳалаштириши, молиялаштириши, қуриши ҳамда эксплуатация қилиши;

юзага келиши мумкин бўлган хавф-хатарларни ўз зиммаларига олган ҳолда, дастлабки баҳолаш бўйича жами **758 млн АҚШ доллари** миқдорида **тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиши;**

в) “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ва Лойиҳа компанияси ўртасида **2023 йил 19 апрелда Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисида битим** (кейинги ўринларда – Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим) имзоланганлиги ҳамда унга мувофиқ;

Лойиҳа компанияси ишлаб чиқарилган электр энергиясини “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга кафолатланган тарзда сотиш мажбуриятини олиши;

Лойиҳа компанияси қурилиш давридаги ўз мажбуриятлари лозим даражада бажарилишининг таъминоти сифатида **30 млн АҚШ доллари** миқдорида биринчи даражали хорижий **банк кафолатини** тақдим этиши;

Инвестиция лойиҳаси доирасида фотоэлектр станциясини ягона электр энергияси тармоғига улаш учун подстанция ва ҳаво электр узатиш тармоқлари **Лойиҳа компанияси томонидан қурилиши** ҳамда ишга туширилгандан сўнг Лойиҳа компанияси уларни “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга топшириш мажбуриятини олиши;

фотоэлектр станциясини ягона электр энергияси тармоғига улаш учун подстанция ва ҳаво электр узатиш тармоқлари Лойиҳа компанияси томонидан қурилиши ҳамда ушбу ишлар учун **сарфланган харажатлар “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ томонидан 10 йил давомида ойлик тўловлар асосида қопланиши;**

Инвестиция лойиҳаси доирасида электр энергиясини сақлаш тизими Лойиҳа компанияси томонидан қурилиши ҳамда ишга туширилгандан сўнг Лойиҳа компанияси унинг иш режимини Энергетика вазирлиги ҳузуридаги **“Миллий диспетчерлик маркази” ДУКнинг диспетчерлик бошқаруви билан мувофиқлаштириш мажбуриятини ўз зиммасига олиши;**

“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ **25 йил давомида электр энергиясини кафолатланган тарзда харид қилиш мажбуриятини олиши** ва электр энергияси учун **тўловни миллий валютада амалга ошириши** маълумот учун қабул қилинсин.

2. Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида:

Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати номидан Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Инвестор ва Лойиҳа компанияси ўртасида имзоланган **Инвестиция битими тасдиқлансин;**

“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ва Лойиҳа компанияси ўртасида тузилган **Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим маъқуллансин.**

3. Инвестиция битими ва Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битимга мувофиқ уларнинг амал қилиш муддати давомида электр энергиясининг сотиб олиниши, электр энергиясини сақлаш тизимининг фойдаланишга тайёр ҳолати учун ва ҳаво электр узатиш тармоқларини қуришга сарфланган харажатлар бўйича тўловлар чет эл валютасида деноминацияланган қатъий тариф бўйича амалга оширилиши белгилаб қўйилсин.

4. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Энергетика вазирлиги ҳамда “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга Лойиҳа компанияси томонидан Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида имзоланган битимлар бўйича мажбуриятлар бажарилмаган тақдирда, Лойиҳа компанияси ва Инвестор ҳуқуқини Инвестиция лойиҳасини молиялаштиришда иштирок этадиган бошқа кредиторларга тўғридан-тўғри ўтказиш юзасидан битимлар тузиш ҳуқуқи берилсин.

5. “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга:

Лойиҳа компанияси билан биргаликда Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битимда белгиланган тартиб-таомилларга мувофиқ Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш учун **халқаро мустақил инжиниринг компаниясини ва бошқа маслаҳатчиларни мажбурий экспертиза ўтказмаган ҳолда танлаб олишга ҳамда улар билан шартномалар тузишга;**

Лойиҳа компанияси томонидан ишлаб чиқариладиган электр энергиясини уч ой мобайнида сотиб олиш мажбурияти бажарилишининг таъминоти сифатида Лойиҳа компанияси фойдасига чет эл банкининг чет эл валютасида тасдиқланган ва тикланадиган аккредитивини очишга **руҳсат берилсин.**

6. Иқтисодиёт ва молия вазирига Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати номидан “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖнинг аккредитив очадиган хорижий банк олдидаги тўлов мажбуриятлари Осие тараққиёт банки, Жаҳон банки ёки Европа тикланиш ва тараққиёт банки кафолати орқали бажарилган тақдирда, ушбу банк билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматига мақбул шаклдаги ушбу банк харажатларини қоплаш тўғрисидаги битимни имзолаш ваколати берилсин.

7. Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида Лойиҳа компаниясига, барча солиқлар ва йиғимлар тўланган ҳолда, Инвестиция лойиҳасини молиялаштириш доирасида қуйидаги ҳуқуқлар берилсин:

кредит олиш, чет эл валютасида пул маблағлари олиш ва улардан фойдаланиш (шу жумладан чет эл валютасида кредит тушумлари) учун чет эллардаги хорижий банкларда банк ҳисобварақлари очиш;

Ўзбекистон Республикасидан ташқарида бўлган хорижий пудрат ташкилотлари, етказиб берувчилар ёки хорижий кредиторларга тўловларни Ўзбекистон Республикасидаги банк ҳисобварақлари орқали ўтказмасдан, тўғридан-тўғри амалга ошириш.

8. Инвестиция лойиҳаси доирасида фотоэлектр панелларини ўрнатиш билан боғлиқ қурилиш ва ер ишларини бажариш, бино ва иншоотлар пойдеворларини лойиҳалаштириш нормалари ва қоидалари Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим қоидаларига мувофиқ халқаро стандартлар билан тартибга солиниши белгилаб қўйилсин.

9. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Сув хўжалиги вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Самарқанд вилояти ҳокимлигининг Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш учун ажратиладиган Самарқанд вилоятининг Нуробод ва Пастдарғом туманлари ҳудудларидаги иловага мувофиқ 1 062 гектар ер участкасини қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар тоифасидан саноат ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар тоифасига ўтказиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

10. Самарқанд вилояти ҳокимлиги бир ой муддатда Инвестиция битими ва Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битимда кўрсатилган шартларга мос келадиган қуёш фотоэлектр станцияси, электр энергиясини сақлаш тизими ва уларнинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанция ҳамда қуриладиган ҳаво электр узатиш тармоқлари учун зарур бўлган ер участкаларини Энергетика вазирлигига доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан ажратилишини таъминласин.

Бунда:

а) Энергетика вазирлиги мазкур бандга асосан ўзига берилган тегишли ер участкаси:

қуёш фотоэлектр станцияси ва электр энергиясини сақлаш тизимини қуриш учун Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш муддатига тенг даврга Лойиҳа компаниясига;

подстанция ва ҳаво электр узатиш тармоқларини қуриш учун **“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга ижарага берилишини таъминласин;**

б) Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида:

Энергетика вазирлиги қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланганлик учун **қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши нобудгарчилиги ўрнини қоплашдан (компенсация тўловларидан) озод қилинсин;**

Лойиҳа компанияси томонидан ер участкалари учун тўланадиган ижара тўлови миқдори ер солиғи миқдорига тенглаштирилсин.

11. Лойиҳа компаниясининг буюртманомасига биноан:

Ташқи ишлар вазирлиги – Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида жалб қилинадиган хорижий мутахассислар учун кириш визалари, зарур ҳолларда, Ислом Каримов номидаги “Тошкент” халқаро аэропортида белгиланган тартибда расмийлаштирилишини (муддати узайтирилишини);

Ички ишлар вазирлиги – Лойиҳа компанияси ва Инвестиция лойиҳаси доирасида жалб қилинган пудрат ташкилотларининг хорижий мутахассислари ҳамда уларнинг оила аъзоларига кўп марталик виза муддатлари узайтирилишини, шунингдек, вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиниши ва унинг муддати узайтирилишини;

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги – хорижий фуқароларга Ўзбекистон Республикаси ҳудудида меҳнат фаолияти билан шўғулланиш ҳуқуқини берувчи тасдиқномалар белгиланган тартибда берилишини (муддати узайтирилишини) таъминласин.

12. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги Инвестиция лойиҳаси амалга оширилиши, шунингдек, томонларнинг Инвестиция битими ва Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим доирасидаги мажбуриятларини бажариши устидан доимий назорат ўрнатсин.

13. Ақлия вазирлиги Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида Инвестиция битими ҳамда унинг қоидаларига мувофиқ имзоланган битимлар юзасидан юридик ҳулосалар берсин.

14. Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги лойиҳа ҳужжатлари белгиланган тартибда экологик экспертизадан ўтказилишини ва Инвестиция лойиҳасини амалга оширишда табиатни муҳофаза қилишга оид қонунчилик ҳужжатларига риоя этилишини таъминласин.

15. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил этишга масъул ва шахсий жавобгар этиб энергетика вазири Ж.Т.Мирзамаҳмудов белгилансин.

Қарор ижросини ҳар чорақда муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н.Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2023 йил 4 июлдаги ПҚ–207-сон қарорига
илова

**“Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати
500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган
электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда унинг фаолиятини
таъминлашга хизмат қилувчи подстанцияни қуриш (Sazagan Solar 1)”
инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида қишлоқ хўжалигига
мўлжалланган ерлар тоифасидан саноат ва бошқа мақсадларга
мўлжалланган ерлар тоифасига ўтказилаётган ер участкалари
РЎЙХАТИ**

Худуд номи	Контур рақами	Жами ер участкаси майдони (гектар)	Шундан, лалми ерлар, яйловлар ва пичанзорлар
Фотоэлектр станцияни қуриш учун			
Самарқанд вилояти Нуробод тумани (Сазоғон массиви)	120қ-124қ	51	51
	124қ	10,4	10,4
	117қ	29,94	29,94
	119қ	8,4	8,4
	117қ-119қ-224қ	116,26	116,26
Самарқанд вилояти Нуробод тумани (Олға массиви)	937қ-936қ-940қ-941қ- 942қ-943қ-944қ-945қ- 946қ-947қ-948қ-957қ- 957ақ-958қ-959қ-960- 961қ-972қ-973қ	809	809
Янги қуриладиган подстанция учун			
Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани (Дўстлик-3 массиви)	48қ, 56қ, 57қ	20	20
Янги қуриладиган электр энергиясини сақлаш тизими учун			
Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани (Дўстлик-3 массиви)	48қ	17	17
Жами		1062	1062



2-ilova: GPS koordinatalari va qo'shimcha rejalashtirilgan havo elektr uzatish liniyalari xaritasi

HEUL №1

ID	Uzunlik	Kenglik
1	66.786148	39.671625
2	66.785268	39.670320
3	66.791234	39.665117
4	66.796059	39.664989
5	66.797410	39.662908
6	66.795516	39.656386
7	66.792167	39.656300
8	66.789482	39.656065
9	66.787403	39.651143
10	66.792450	39.624348
11	66.792945	39.617917
12	66.772138	39.586197
13	66.753256	39.579207

HEUL № 2

ID	Uzunlik	Kenglik
1	66.866283	39.543882
2	66.851297	39.543786
3	66.817824	39.542738
4	66.792462	39.562805
5	66.782570	39.560189
6	66.754429	39.577930
7	66.753367	39.577784

HEUL №3

ID	Uzunlik	Kenglik
1	66.780569	39.672118
2	66.784989	39.671722
3	66.784850	39.670219
4	66.791055	39.664807
5	66.795803	39.664682
6	66.797023	39.662862
7	66.795196	39.656693
8	66.789482	39.656065
9	66.788578	39.654929
10	66.786995	39.651143
11	66.792041	39.624348
12	66.792531	39.617985
13	66.771837	39.586433
14	66.753246	39.579550

HEUL №4

ID	Uzunlik	Kenglik
1	66.753557	39.577499
2	66.754308	39.577598
3	66.782487	39.559840
4	66.792358	39.562454
5	66.817675	39.542419
6	66.851197	39.543468
7	66.864924	39.543561
8	66.865224	39.542695